

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIIY TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR  
VAZIRLIGI**

**BUXORO  
MUHANDISLIK-TEXNOLOGIYA INSTITUTI  
KENGASHI TO‘G‘RISIDA NIZOM**

**Buxoro – 2024 yil.**

“Buxoro muhandislik-texnologiya instituti kengashi to‘g‘risida”gi Nizom institut rektorining 05.09.2024- yildagi U-569-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan.

«TASDIQLAYMAN»



BuxMTI rektori, institut

kengashi raisi

S.G'.Siddiqova

05.09.2024 yil

**Buxoro muhandislik-texnologiya instituti**  
**kengashi to'g'risida**  
**N I Z O M**

Mazkur Nizom Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirining 2011-yil 3-dekabrda 487-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan va 2019-yil 1-aprelda 296-son buyrug'i bilan qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritilgan "Oliy ta'lim muassasasining kengashi to'g'risida"gi namunaviy Nizomga muvofiq ishlab chiqilgan bo'lib, Buxoro muhandislik-texnologiya instituti kengashi faoliyatini tashkil etish tartibini belgilaydi.

**I. Umumiy qoidalar**

1. Institutning faoliyatiga tegishli asosiy masalalarni ko'rib chiqish uchun rektor raisligida institut kengashi (keyingi o'rinlarda - kengash) tashkil etiladi.

2. Kengash tarkibi rektor, prorektorlar, fakultet dekanlari, institut tarkibiga kiruvchi mustaqil tashkilot va tarmoqlar direktorlari, mutaxassis chiqaruvchi kafedralar mudirlari, institut kengashining kotibi, monitoring va ichki nazorat bo'limi boshlig'i, ta'lim sifatini nazorat qilish bo'limi boshlig'i, shuningdek, jamoat tashkilotlari rahbarlaridan tashkil etiladi.

Kengashning boshqa a'zolari fakultetlarning umumiy majlisida yashirin ovoz berish yo'li bilan saylanadi. Professor-

o'qituvchilar tarkibidan Kengashga saylanuvchi a'zolarning soni rektorning buyrug'i bilan belgilanadi. Kengash tarkibiga institutda muayyan yo'nalish muammolari bo'yicha ishlayotgan yirik olim va mutaxassislar ham kiritilishi mumkin. Kengashning vakolat muddati - 5 yil.

3. Kengash tarkibi institut rektorining buyrug'i bilan tasdiqlanadi. Har o'quv yilining boshida, turli sabablarga ko'ra Kengash tarkibidan chiqqanlar o'rniga, yangi a'zolar saylanadi yoki nizom bo'yicha kiritiladi.

## **II. Kengashning maqsad va vazifalari**

4. Kengashning maqsadi - institut jamoasi say'-harakatlari, intellektual salohiyati va boshqa barcha imkoniyatlarni "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunda belgilangan vazifalarning bajarilishini ta'minlashga, oliy ta'limning davlat ta'lim standarti talablari darajasida mukammal bilim, malaka, ko'nikmalarga ega bo'lgan professional mutaxassislar tayyorlashga yo'naltirishdan iborat.

5. Kengash institutning asosiy kollegial organi ekanligi sababli, unda institut faoliyatiga oid barcha masalalar muhokama qilinib, tegishli qarorlar qabul qilinadi, jumladan Kengashda:

- ta'lim tizimiga oid Qonun hujjatlarida, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmonlarida, Qarorlarida, Farmoyishlarida va Prezident rahbarligida o'tkazilgan videoselektor yig'ilishida berilgan topshiriqlarda, Vazirlar Mahkamasi qaror va farmoyishlarida hamda vazirlik buyruqlari, qarorlari va topshiriqlarida, institut rektori

buyruqlarida belgilangan vazifalar ijrosi masalasi ko'rib chiqiladi va tegishli qarorlar qabul qilinadi;

- professor-o'qituvchilar, xodimlar va talabalarning ijro intizomiga rioya qilish masalasi ko'rib chiqiladi va tegishli qarorlar qabul qilinadi;

- institut faoliyatiga oid, yuqori tashkilotlar hujjatlari asosida tartibga solinmagan o'quv-uslubiy, ma'naviy-ma'rifiy, ilmiy-tadqiqot va boshqa yo'nalishdagi me'yoriy hujjatlar ko'rib chiqiladi va tasdiqlanadi;

davlat ta'lim standartlari, ta'lim yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklari malaka talablari, o'quv rejalari va dasturlarining qat'iy bajarilishi o'rganib chiqiladi hamda ustivor masalalar bo'yicha tavsiya va topshiriqlar belgilanadi;

- talabalar tomonidan fanlarni o'zlashtirish darajasi tizimli tarzda ko'rib chiqiladi va tegishli qarorlar qabul qilinadi;

- fakultetlarning o'quv, ilmiy-tadqiqot va ma'naviy-ma'rifiy ishlari to'g'risidagi, akademik litseylar, institut qoshidagi ilmiy jamiyatlarning faoliyati to'g'risidagi, qabul komissiyasining qabul natijalari to'g'risidagi, shuningdek marketing xizmatining xalq xo'jaligining bitiruvchi mutaxassislarga bo'lgan extiyoji, buyurtmachi tashkilotlar bilan hamkorlik aloqalari to'g'risidagi hisobotlari eshitiladi hamda tegishli qarorlar qabul qilinadi;

- o'quv-uslubiy, ilmiy-tadqiqot, ma'naviy-ma'rifiy ishlarga oid rejalar tasdiqlanadi va ularning ijrosi, professor-o'qituvchilar tarkibining malaka oshirish va qayta tayyorlash masalalari muhokama qilinadi hamda tegishli qarorlar qabul qilinadi;

- institut rivojlanishining yillik va istiqbolli rejalari tasdiqlanadi, moddiy-texnik ta'minot va moliyaviy-xo'jalik

faoliyati natijalari muhokama qilinadi hamda tegishli qarorlar qabul qilinadi;

- fakultet va kafedralarni ochish, tugatish, o'zgartirish, shuningdek marketing xizmati takliflarini hisobga olgan holda yangi bakalavriat yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklari bo'yicha kadrlar tayyorlashni yo'lga ko'yish yoki to'xtatish bilan bog'liq masalalar bo'yicha qarorlar qabul qilinadi;

- ishlab chiqarish to'g'risidagi sabablarga ko'ra yangi tashkil etilgan tashkiliy tuzilma (fakultet, bo'lim)larga amaliy jihatdan yordam berish, olib borilayotgan ish samaradorligini yaxshilash uchun institut bo'yicha tasdiqlangan shtat jadvali doirasida vaqtinchalik 0,5 stavkagacha shtat birligi ajratish bo'yicha tavsiya beriladi;

- "Oliy ta'lim muassasalariga pedagog xodimlarni tanlov asosida ishga qabul kilish tartibi to'g'risida"gi Nizomga muvofiq professor- o'qituvchilar lavozimlarini egallash uchun tanlovlar o'tkaziladi;

- jismoniy tarbiya va sport o'qituvchisi (kafedra mudiri) lavozimini egallash uchun tanlov o'tkaziladigan kengash yig'ilishi O'zbekiston Respublikasi Jismoniy tarbiya va sport vazirligi vakilining ishtirokida o'tkaziladi;

- professor, dotsent ilmiy unvonini olish uchun nomzodlarning hujjatlari ko'rib chiqiladi va belgilangan tartibda ilmiy unvonga tasdiqlashga taqdim etiladi;

- institut bitiruvchilari hamda professor-o'qituvchilarining ingliz tilini bilishlarini ta'minlash va kompyuter texnologiyalari, internetdan foydalana olishlari bo'yicha tayanch ko'nikmalarni shakllantirish, Davlat tilida ish yuritish

tartibini bilish masalalarini muhokama qiladi va chora-tadbirlar belgilaydi;

- ta'lim jarayonining o'quv adabiyotlari bilan ta'minlanganligi, yangi avlod darslik va o'quv qo'llanmalari, shuningdek innovatsion ta'lim texnologiyalarini qo'llashga asoslangan o'quv-uslubiy majmualarni, monografiyalarni tayyorlash va nashr etish masalalari muhokama qilinadi;

- doktoranturaga, tayanch doktoranturaga, stajor-tadqiqotchilikka va mustaqil izlanuvchilikka qabul natijalari hamda qabul qilingan doktorant, tayanch doktorant, stajor-tadqiqotchi va mustaqil izlanuvchilarning dissertatsiya mavzulari tasdiqlanadi;

- iqtidorli talabalar safidan va professor-o'qituvchilar tarkibidan nomzodlarni xorijiy oliy ta'lim muassasalarida stajirovka o'tishga tavsiya etiladi;

- institut iqtidorli talabalari safidan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Davlat stipendiyasi va nomli davlat stipendiyalar tanlovida ishtirok etadigan nomzodlar tavsiya etiladi;

- "Sog'lom avlod uchun" jamg'armasi bilan hamkorlikda talabalarning jismoniy tarbiyasi va ularning sog'liklarini yanada yaxshilash bo'yicha tadbirlar ishlab chiqadi;

- asosiy buyurtmachi tashkilot, korxonalar va muassasalar bilan korporativ hamkorlikni rivojlantirish, moddiy-texnik bazani mustaxkamlash hamda talabalarning malakaviy amaliyoti samaradorligini oshirish masalalari muhokama qilinadi va ularni yaxshilash bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqiladi;

- xorijiy mamlakatlarning oliy ta'lim muassasalari bilan hamkorlik aloqalarini o'rnatish bo'yicha qarorlar qabul qilinadi;

-institut huzuridagi ta'lim xizmatlari bilan shug'ullanuvchi kichik korxonalar, spin-off korxonalar, firma va kurslar faoliyati haqida xabarlarining hisobotlari eshitiladi hamda tegishli qaror qabul qilinadi;

- institut talabalari va xodimlarining texnika xavfsizligi va mehnat muxofazasini takomillashtirish bo'yicha tadbirlar belgilanadi;

- institut kengashi muhokamasiga yuqori tashkilotlar va rektor topshirig'i ijrosiga oid, o'quv-uslubiy, ilmiy-tadqiqot, ma'naviy-ma'rifiy va boshqa faoliyatlarni tartibga soluvchi me'yoriy hujjatlar mazmunidan kelib chiquvchi hamda institut faoliyatiga oid boshqa masalalar ham kiritilishi mumkin.

### **III. Kengash faoliyatini tashkil etish**

6. Kengash o'z faoliyatini har o'quv yili uchun ishlab chiqiladigan rejaga muvofiq amalga oshiradi. Kengash rejasi Kengash tomonidan ko'rib chiqilganidan so'ng institut rektori tomonidan tasdiqlanadi.

7. Institutning o'quv, ilmiy-uslubiy, ilmiy-tadqiqot, ma'naviy-ma'rifiy va tashkiliy ishlariga doir barcha masalalar bo'yicha Kengash qarorlari ochik ovoz berish tartibida ko'pchilikning ovozi bilan qabul qilinadi. Kengash majlisi uning tarkibidagi a'zolarining 2/3 qismi ishtirok etgandagina haqiqiy hisoblanadi.

Professor-o'qituvchilar tarkibi lavozimlarini egallash hamda professor yoki dotsent ilmiy unvonlariga tavsiya etish



bo'yicha o'tadigan tanlovlar va takdimnomalar yuzasidan qarorlar yopik ovoz berish yo'li bilan belgilangan tartibda qabul qilinadi.

8. Kengash qarorlari institut rektori tomonidan tasdiqlangandan so'ng kuchga kiradi.

9. Kengash majlisi bayonnoma bilan rasmiylashtiriladi, bayonnomalar Kengash raisi va kotibi tomonidan imzolanadi.

10. Kengash raisi muntazam ravishda Kengash qarorlarining bajarilishi bo'yicha tekshiruvlar tashkil etadi va Kengash a'zolariga ularning natijalari haqida axborot beradi.

BuxMTI katta yuriskonsulti



O.T. Sadikov